Inspeksiya Hay‘at yig‘ilishining
2026-yil 14-yanvardagi
HB-01-26-sonli bayoniga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparatining 2026-yil I yarim yillik
ISH REJASI

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas’ullar
I. “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI, VAZIRLAR MAHKAMASINING YAQIN MUDDATGA VA UZOQ ISTIQBOLGA MO‘LJALLANGAN HARAKATLAR DASTURIDAN KELIB CHIQADIGAN USTUVOR VAZIFALAR					
1.	“O‘zbekiston-2030” strategiyasini “**Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili**”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Resublikasi Prezidentinng Farmoni ijrosini ta’minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar bo‘yicha **chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash.**	1. Inspeksiya tomonidan Chora-tadbirlar rejasining tegishli bandlari ijrosini ta’minlash. 2. Ijrosi yakuni bo‘yicha tegishli tahliliy ma’lumotlarni tayyorlash. 3. Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axborotni **“Taraqqiyot strategiyasi” markazi, “Yuksalish” harakatiga kiritib borish.**	**fevral, iyul (05.02, 05.07)**	Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarishga, shuningdek, qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini oshirishga erishiladi.	V.Hasanov, **I.Pirnazarov(i),** tarkibiy tarmoq va hududiy boshqarmalar boshliqlari
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166 va 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son Farmonlari hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qarorida belgilangan **ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash.**	1. Har hafta juma kunlari Inspeksiya boshlig‘ining o‘rinbosariga, har hafta dushanba kuni Inspeksiya boshlig‘i huzurida ijro intizomiga rioya qilinishi bo‘yicha o‘tkaziladigan muhokamaga tahliliy ma’lumotlar kiritib borish. 2. Har hafta dushanba kuni ijro intizomiga rioya qilinishi bo‘yicha muhokama yakuni bo‘yicha **yig‘ilish bayonlarini rasmiylashtirish.**	**yanvar-iyun (har oyning 5-sanasiga)**	Inspeksiyaga kelib tushgan har bir hujjatni ro‘yxatga olinishi va uning ijro muddatini belgilash qat’iy tartib asosida amalga oshirilishi, hujjatlarning ijro etilishi ustidan nazoratni tashkil qilinishi hamda har bir hujjatning, shu jumladan, qonunchilik hujjatlari va	V.Hasanov, **I.Pirnazarov(i),** tarkibiy tarmoq va hududiy boshqarmalar boshliqlari

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas’ullar
		3.Qonunchilik hujjatlari ijrosini tahlil qilib borish. 4. Har oy yakuni bilan **Adliya vazirligiga axborot kiritish.**		topshiriqlarning o‘z vaqtida ijro qilinishi ta’minlanadi.	
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-184-qarori 2-ilova 53-band ijrosini ta’minlash.	1.O‘zagroinspeksiya rasmiy veb-saytidagi “Ekofaol xodim” nomli bo‘limda ekologik madaniyatni yuksaltirish mavzusidagi targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish. 2.Ushbu yo‘nalishdagi namunali xodimlar haqida ma’lumotlar joylashtirish va ularni muntazam yangilab borish. 3.Matbuot kotibi taqdim etilgan materiallarni https://gov.uz/oz/agroinspeksiya?/oz/ saytiga joylab borish.	**yanvar-iyun**	Inspeksiya tizimida ekologik madaniyatini yuksaltirish borasida ishlar amalga oshiriladi.	**S.Ismoilova (i),** Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi" DM, hududiy boshqarmalar
4.	Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini **ro‘yxatdan va qayta ro‘yxatdan o‘tkazish**.	1.2026-yil I yarim yillikda texnika-larni ro‘yxatdan va qayta ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatish; 2. I yarim yillikda jami 10 500 dona (I chorakda – 5 000 dona, II chorakda – 5 500 dona) qishloq xo‘jaligi melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini ro‘yxatdan va qayta ro‘yxatdan o‘tkazish. 3.Natijasi bo‘yicha **Qishloq xo‘jaligi vazirligiga xat kiritish.**	**har chorak yakuni bilan**	1.Texnikalarning o‘z vaqtida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi ta’minlanadi. 2.Mavjud texnikalarning aniq hisobi yuritilishi ta’minlanadi. 3.Texnikalar yordamida agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi ta’minlanadi.	**A.Mirzaaxmedov(i),** boshqarma xodimlari, hududiy boshqarmalar

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
5.	Yuridik shaxslarga Davlat xizmatlari markazi yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal orqali jismoniy shaxslarning 100 ot kuchigacha quvvatga ega bo'lgan texnikalarini texnik ko'rikdan o'tkazish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari hisobiga kirish bo'yicha **murojaatlar qilish imkoniyatini yaratish.**	1.Inspeksiyaning tegishli axborot tizimini "Raqamli hukumat" tizimi bilan integratsiyasi qilish bo'yicha Texnologik yo'riqnoma ishlab chiqish. 2.Integratsiyani ishga tushirish. 3.Natijasi bo'yicha **Adliya vazirligiga xat kiritish.**	**I chorak yakuni bilan**	1.Inspeksiyaning tegishli axborot tizimini "Raqamli hukumat" tizimi bilan integratsiya qilinadi. 2. Jismoniy shaxslarning 100 ot kuchigacha quvvatga ega bo'lgan texnikalarini texnik ko'rikdan o'tkazish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari hisobiga kirish bo'yicha murojaatlarni elektron yuborish imkoniyatini yaratiladi.	**A.Mirzaaxmedov (i),** N.Kadirov
6.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-noyabrdagi 55-son topshiriq bayoni 26.3-bandi "Raqamli hukumat" tizimining ma'lumotlarni qayta ishlash markazi xizmatlaridan axborot xavfsizligi talablari va belgilangan tartibga rioya qilgan holda **xususiy sektor va startap loyihalari uchun xizmat ko'rsatishni tashkil etish.**	1.Inspeksiyada xususiy sektor va startap loyihalari uchun xizmat turlarini shakllantirish. 2.Xususiy sektor va startap loyihalari uchun ko'rsatilayotgan xizmat turlari bo'yicha **Raqamli texnologiyalra vazirligiga ma'lum qilish.**	**23-fevral**	Axborot xavfsizligi talablariga rioya etilgan holda xususiy sektor va startap loyihalariga xizmat ko'rsatish jarayoni yo'lga qo'yiladi va raqamli tizimlar orqali samarali hamkorlik ta'minlanadi.	**N.Kadirov (i),** Bo'lim xodimlari
7.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-sentabrdagi PQ-287-son qarori 8-bandi ijrosi yuzasidan maxsus vakolatli davlat organlari yerga oid huquqbuzarliklarni aniqlovchi inspektorlarning faoliyatini **to'liq raqamlashtirib, maxsus**	1. Inspeksiya ehtiyojlaridan kelib chiqib, planshet va yon kameralarni texnik talablarini ishlab chiqish. 2. Belgilangan talablar asosida xarid qilish uchun tender savdo jarayonlarini tashkil etish. 3. Maxsus planshetlar va yonkameralar bilan jihozlanishini	**15-mart**	Inspektorlar faoliyati to'liq raqamlashtirilib, maxsus planshet va yon kameralar bilan jihozlanadi, xarid jarayonlari texnik talablar asosida tashkil etiladi.	**N.Kadirov (i),** Moliya-xo'jalik va iqtisod bo'limi

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas’ullar
	planshetlar va yonkameralar bilan jihozlanishini ta’minlash.	ta’minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha **Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.**			
8.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-sentabrdagi PQ-287-son qarori 14-band Yer maydonlaridan samarali va maqsadli foydalanish, yer maydonlarini o‘zboshimchalik bilan egallash va bunday yerlarda noqonuniy qurilmalar qurilishining oldini olish hamda bu borada korrupsion omillarga barham berish, samarali monitoringni amalga oshirish maqsadida Qishloq xo‘jaligi vazirligi, “O‘zagroinspeksiya” va Kadastr agentligining elektron dastur va platformalarini **prokuratura organlarining elektron dasturlari bilan integratsiya qilish.**	1. Prokuratura elektron dasturlari bilan inetegratsiya qilish. 2. Amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha **Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.**	**15-mart**	Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zagroinspeksiya va Kadastr agentligining elektron tizimlari prokuratura organlari elektron dasturlari bilan integratsiya qilinadi.	**N.Kadirov (i),** Bo‘lim xodimlari
II. XODIMLARINING MADANIY-MARIFIY FAOLLIGINI OSHIRISH HAMDA DAVLAT TILIGA OID QONUN HUJJATLARIGA RIOYA QILINISHINI TA’MINLASH MASALALARI					
9.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi “O‘zbekiston Milliy simfonik orkestri faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda milliy va jahon mumtoz musiqa san’atidan aholini yanada kengroq bahramand etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-401-son qarori ijrosi yuzasidan	1. Inspeksiya xodimlarini milliy va jahon musiqa san’ati asarlari bilan tanishtirish maqsadida, konsert dasturlariga tashrif buyurishlari uchun uchun chiptalar va abonementlar sotib olish. 2. Ushbu konsert dasturlariga xodimlarni tashriflarini tashkil qilish.	**25-fevral**	Inspeksiya xodimlari milliy va jahon musiqa san’ati asarlari bilan tanishtirilishiga erishiladi.	**F.Mamasoliyev (i),** Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari, Davlat muassasasi

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
	xodimlarni milliy va jahon musiqa san'ati asarlari bilan tanishtirishni tashkil qilish.	3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **Vazirlar Mahkamasiga axborot berish.**			
10.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi "O'zbekistonda bayramlarning g'oyaviy-ma'naviy mazmunini yanada kuchaytirish va ommalashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 824-son qarori ijrosi yuzasidan sport musobaqalari va ijodiy bellashuvlar o'tkazish.	1. Inspeksiya xodimlari o'rtasida umumxalq bayramlari munosabati bilan sport musobaqalari va bayram mazmuniga mos ijodiy bellashuvlar o'tkazish. 2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **Vazirlar Mahkamasiga axborot berish.**	**5-fevral**	Inspeksiyada umumxalq bayramlarini keng nishonlanishiga va bayram tadbirlarini ko'taringki ruhda o'tkazilishiga hamda xodimlarni ma'naviy-marfiy xordiq chiqarishlariga erishiladi.	**F.Mamasoliyev (i),** Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari, Davlat muassasasi
III. YURIDIK TA'MINLASH VA FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR					
11.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi "Huquqiy axborotni proaktiv shaklda yetkazish tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PF-160-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlarni tashkil etish.**	1.Kartoteka asosida davlat organlari va tashkilotlari normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yetkazish bo'yicha manzilli huquqiy targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish. 2.Bajarilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimiga hamda **Adliya vazirligiga kiritib borish.**	**fevral**	Yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar xodimlarga tanishtirilishi va ularning mazmun-mohiyati o'z muddatida tushuntirilishi ta'minlanadi.	**Sh.Bo'ronov(i),** S.Ismailova va barcha tarkibiy tarmoqlar rahbarlari
IV. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI, PREZIDENTINING FARMONLARI, QARORLARI, FARMOYISHLARI VA HUKUMAT QARORLARI IJROSINI MAQSADLI O'RGANISH					
12.	Ish yuritish va ijro intizomiga oid qonunchilik hujjatlari (PF-6166, PF-117, PQ-5132, Vazirlar Mahkama-sining 12,140,616-sonli qarorlari)	1. Amaldagi qonunchilik hujjatlari va Inspeksiya ichki hujjatlari asosida o'rganish dasturini shakllantirish.	**aprel-may**	Inspeksiyaga kelib tushgan har bir hujjatni ro'yxatga olinishi va uning ijro muddatini belgilash qat'iy tartib asosida amalga	**I.Pirnazarov (i),** Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorzam viloyat

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas’ullar
	ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni Inspeksiyaning quyi tizimlarida va tarkibiy bo‘linmalarida o‘rganish. Markaziy apparat tomonidan mazkur yo‘nalishda hududiy boshqarmalarda “edo.ijro.uz” tizimi orqali amalga oshirilgan ishlarni **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** va **Xorzam viloyatida** joyiga chiqqan holda yoki masofaviy maqsadli o‘rganish.	2. Bazadagi hisobotlar asosida tahliliy ma’lumotlarni yig‘ish, ma’lumotlar tayyorlash. 3. O‘rganish yakuni bo‘yicha rahbariyatga yig‘ma axborot kiritiladi va tegishli chora-tadbirlar belgilanadi, aniqlangan holatlar yuzasidan zarur hollarda **hududiy boshqarmalarga ko‘rsatma chiqarish.**		oshirilishi, hujjatlarning ijro etilishi ustidan nazoratni tashkil qilinishi hamda har bir hujjatning o‘z vaqtida ijro qilinishi ta’minlanadi.	hududiy boshqarmalari boshliqlari
13.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi “Respublikada kartoshka yetishtirishni ko‘paytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadirlar to‘g‘risida”gi PQ-269-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “O‘zagroinspeksiya” qoshidagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi” davlat muassasasi tomonidan raqamli QR kodli yorliqlash hamda **sifatini baholash** va **ekinboplik xulosa-sining berilishini nazorat qilish.**	1. Respublikada 2026-yil hosili uchun asosiy maydonlarga talab etiladigan yuqori avlodli urug‘liklarning raqamli QR kodli yorliqlash hamda sifatini baholash va ekinboplik xulosasini olish maqsadida, tadbirkorlik subyektlari tomonidan berilgan arizalarni tahlil qilish. 2. Kartoshkaning mini tuganaklariga berilgan raqamli QR kodli yorliqlash hamda ekinboplik xulosalarining miqdorini tahlil qilish. 3. Nomuvofiq deb topilgan urug‘lik kartoshkalar miqdori va rad etilgan arizalar soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘yicha rahbariyatga hamda **Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish**.	**5-mart**	Prezident qarorida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosi ta’minlanadi, respublikada kartoshka yetishtiruvchi subyektlarga sifatli yuqori avlodli urug‘lik kartoshka yetkazib beriladi.	**M.Kurbanbayev(i),** Davlat muassasasi J.Karimov

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas’ullar
14.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi *“Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi PQ-5-sonli qarorning 12-bandi ijrosi bo‘yicha hududlarda **amalga oshirilgan ishlarni nazorat qilish.**	1. 2026-yilda Respublika hududlarida bahor oylarida barpo etilgan bog‘ va tokzorlar, ko‘p yillik daraxtzorlar hamda yengil tipdagi issiqxonalarni tashkil etishda, Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan faqat suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun berilgan xulosalarni tahlil qilish. 2. Xulosalar tahlili natijasiga ko‘ra hamda qarorda belgilab berilgan topshiriqlar ijrosini bajarilishida sustkashlikka yo‘l qo‘ygan soha mas’ullarga boshqarmaning vertikal tizimi hodimlari tomonidan choralar (taqdimnoma, ko‘rsatma va ogohnoma) ko‘rish. 3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tahliliy ma’lumotlar asosida **Vazirlar Mahkamasiga va Bosh prokuraturasiga axborot kiritish.**	**30-iyun**	Prezident qarorida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosi ta’minlanadi. Qaror ijrosi taminlanishi natijasida bog‘ va tokzorlar, ko‘p yillik daraxtzorlar va yengil tipdagi issiqxonalar tashkil etilishiga erishiladi.	**M.Kurbanbayev(i),** Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari
15.	Kooperatsiyalarga ularning paxta xomashyosi saqlash omborlari (maskanlar) belgilangan talablariga javob berishi yuzasidan **xulosalarni berish** hamda ularni **“Agroportal” axborot tizimiga kiritish ishlarini tashkil etish.**	1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2025-yil 17-yanvardagi PF-7-son Farmoni 2-bandiga asosan murojaatlarga ko‘ra spot shartnomalari rasmiylashtirishni rejalashtirgan xo‘jaliklarning mavjud paxta xom ashyosini saqlash omborlari (maskan) belgilangan talablarga javob berishi yuzasidan o‘rganishlarni o‘tkazish.	**1-mart**	Spot shartnomalari rasmiy-lashtirishni rejalashtirgan xo‘jaliklarga mavjud paxta xom ashyosini saqlash omborlari (maskan) belgilangan talablarga javob berishi yuzasidan Inspeksiya tomonidan xulosalarni berilishi ta’minlanadi.	**K. Axmedov(i),** Inspeksiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyat boshqarmalari

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas’ullar
		2.O‘rganish natijalariga ko‘ra, kooperatsiyalarga ularning paxta xomashyosi saqlash omborlari (maskanlar) belgilangan talablariga javob berishi yuzasidan xulosalarni berish hamda ularni “Agroportal” axborot tizimiga kiritish. 3.Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risi-da 2026-yil 1-mart sanasiga rahbariyatga va **Qishloq xo‘jaligi vazirligiga ma’lumot kiritish.**			
16.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-maydagi 345-son qarorida ko‘rsatilgan 4-band “j” kichik bandiga asosan tegishli tashkilotlar bilan birgalikda **har chorakda** va **har kalendar yilning 1-may** holatiga o‘tgan yillarda davlat zaxirasi, davlat resursi, vaqtinchalik saqlash va urug‘lik uchun qabul qilingan bug‘doy qoldig‘ini to‘liq geometrik o‘lchovdan o‘tkazilishini nazorat qilish.	1.Tegishli idoralar bilan ishlab chiqilgan geometrik o‘lchovdan o‘tkazilish grafiklari bajarilishini tashkil etish. 2.Mahsulotlarning sifatini tahlil qilish va geometrik hajmini aniqlash. 3.Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida rahbariyatga hamda **Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ma’lumot kiritish.**	**har chorakda**	Geometrik o‘lchovdan o‘tkazilish grafiklari bajari-lishini tashkil etiladi. Mahsulotlarning sifati tahlil qilinadi va geometrik hajmi aniqlanadi.	**K. Axmedov(i),** Inspeksiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari
17.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-dekabr-dagi PQ-438-sonli qarori va Hukumat komissiyasining 30-noyabrdagi 8-son Bayoniga asosan **Surxondaryo viloyati hududida o‘tkazilgan xatlov natijasi yuzasidan**	1.Surxondaryo viloyati bo‘yicha tayyorlangan materiallarni amaldagi normativ-huquqiy xujjatlar doirasida tahlil qilish. 2.Tahlil natijasiga ko‘ra, ma’lumotnoma (ko‘rilgan ta’sir	**fevral**	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanishni nazorat qilish sohalaridagi qonun va qonunosti hujjatlariga rioya qilinishi va ijrosi yuzasidan nazorat	**A.Maxmudov (i),** Surxondaryo viloyat boshqarmasi

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
	belgilangan tadbirlarini bajarilishini o'rganish.	choralariga alohida e'tibor qaratgan holda) tayyorlash. 3.Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan Inspeksiyaning viloyat boshqarmasiga **ko'rsatma yuborish** va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **Qishloq xo'jaligi vazirligiga axborot kiritish**.		ta'minlanadi.	
18.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-sentabrdagi PF-177-sonli farmoni ijrosi bo'yicha yer munosabatlari sohasida aniqlagan huquqbuzarlik holatlari bo'yicha ma'lumotlarni onlayn ravishda tegishli konturlar kesimida raqamli ko'rinishda integratsiya orqali **SGM platformasiga taqdim etilishini joriy qilish va ta'minlash.**	1.Inspeksiyaning viloyat boshqarmalari tomonidan qishloq xo'jaligida aniqlangan noqonuniy halatlarga nisbatan ko'riladigan ta'sir choralarni "E-YER NAZORAT" dasturida amalga oshirish va bajarilgan ishlarni tahlil qilsh. 2.Tahlil natijasiga ko'ra, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish**.	**mart**	Aniqlagan huquqbuzarlik holatlari bo'yicha ogohlantirish berilgani, huquqbuzarlik bartaraf etilgani, hujjatlar prokuratura va sud organlarida ko'rib chiqilayotgani to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishiga erishiladi.	**A.Maxmudov(i),** Hududiy viloyat boshqarmalari
19.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 25-dekabrdagi 827-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida har yili chigit ekish mavsumi yakunlanganidan keyin "Shinjon" tajribasi asosida chigit ekilgan maydonlarni yalpi xatlovdan o'tkazib, **qishloq xo'jaligi korxonalari ro'yxatini shakllantirish.**	1.2026-yil paxta hosili uchun va har yili chigit ekish mavsumi yakunlangandan keyin "Shinjon" tajribasi asosida chigit ekilgan maydonlar bo'yicha fermer xo'jaliklari kesimida ro'yxatini shakllantirish; 2.Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **Qishloq xo'jaligi vazirligiga ma'lumot kiritish.**	**may**	Hududlarda 2026-yil hosili uchun belgilangan maydonlarga "Shinjon" tajribasi asosida chigit ekilishiga va g'o'za maydonlarida agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishiga erishiladi, bu borada kamchiliklarga yo'l qo'ygan fermer xo'jaliklari va soha masullariga ta'sir choralar qo'llanilib, kachiliklarni bartaraf qilinishiga hamda g'o'za	**M.Husainov (i),** Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
				maydonlaridan yuqori hosil olinish imkoniyati yanada oshadi.	
20.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-fevraldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-66-sonli qarorining 9-bandi ijrosi bo‘yicha Inspeksiyaning **Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan ishlarni tahlil asosida o‘rganish.**	1.Lazerli tekislashga ajratilgan subsidiyalarni tahlil qilish. 2.Yangi xarid qilinadigan qishloq xo‘jaligi texnikalaridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar o‘rganish. 3.Natijasi bo‘yicha **Hisob palatasiga axborot kiritish.**	**fevral**	Lazerli tekislashga ajratilgan subsidiyalar bo‘yicha murojaatlar kelib tushishi va uning ijrosi tahlil qilinadi. Yangi xarid qilingan qishloq xo‘jaligi texnikalaridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatiladi.	**A.Mirzaaxmedov(i),** Inspeksiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqamasi
21.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-iyundagi “Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalarini sinash va sertifikatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4760-sonli qarorining 10-bandi ijrosi bo‘yicha **Inspeksiya tomonidan amalga oshirilgan ishlarni tahlil asosida o‘rganish**.	1. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalari sinovi sinov shartlariga qat’iy rioya qilingan holda o‘tkazilishi; 2. Yagona davlat reestriga kiritilgan qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalaridan ekinlarni etishtirishda foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatiladi. 3. Natijasi bo‘yicha **O‘zbekiston texnik jihatdan tartib solish agentligiga xat kiritish.**	**aprel**	Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikalaridan samarali foydalanish ustidan nazorat o‘rnatiladi.	**A.Mirzaaxmedov(i),** boshqarma xodimlari, hududiy boshqarmalar
22.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrdagi PQ-421-sonli **qarori ijrosi**	1. Ish vaqtidan so‘ng belgilangan kunlarda (haftada kamida bir marta)	**1-fevralga qadar**	Xodimlarning sog‘lom turmush tarzi ta’minlanadi.	**A.G‘afforov(i),** hududiy boshqarmalar

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
	yuzasidan tegishli ishlarni tashkil qilish.	barcha xodimlarni jamoaviy sport turi bilan shug'ullanishini tashkil qilish. 2.Ma'lumotlarni Inspeksiyaning veb-saytiga joylab borish. 3.Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **Sport vazirligiga axborot kiritish**			
23.	O'zbeksiton Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrdagi 62-2025-sonli topshirig'i ijrosini **Namangan viloyatida nazorat qilish.**	1. Namangan viloyat boshqarmasi hamda tuman bo'limlari hovlilari va binolari atrofida ko'chatlar ekilishini tashkil qilish. 2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **O'zbekiston Mahallalari Uyushmasiga axborot kiritish.**	**mart-aprel**	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig'i ijrosi ta'minlanadi.	**A.G'afforov(i),** Namangan viloyati boshqarmasi
24.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-maydagi 273-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 7-bandi ijrosini ta'minlash.	1. Bini-inshoot hamda avtotransport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish. 2. Davlat aktivlarini boshqarish agentligining "property.davaktiv.uz" saytiga ma'lumotlarni kiritish 3. **Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga axborot kiritish.**	**har chorak yakuni**	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-maydagi 273-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 7-bandi ijrosi to'liq bajariladi.	**A.G'afforov (i),** hududiy boshqarmalar
V. INSPEKSIYA NIZOMIDA BELGILANGAN VAZIFA VA FUNKSIYALAR IJROSINI O'RGANISH, QUYI INSPEKSIYALAR ISH FAOLIYATINI TAHLIL QILISH					
25.	Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 641-sonli qarorining 5-ilovasi bilan tasdiqlangan *"Urug'lik paxta xom ashyosini qabul qilish, saqlash, dastlabki qayta ishlash, urug'lik chigit tayyorlash va*	1. Urug'chilikni rivojlantirish markazi tomonidan 2026-yil hosili uchun urug'lik chigit dislokatsiya taqsimotini o'rganish.	**15-fevral**	Urug'lik chigitning dorilanishi va saqlanishida amaldagi standart talablariga rioya qilinishi natijasida, 2026 yil hosili uchun sifatli urug'lik chigit tayyorlanadi.	**M.Kurbanbayev(i),** Inspeksiyaning Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari boshqarmalari

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas’ullar
	saqlash, tarqatish va sifatini nazorat qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga qat’iy amal qilgan holda urug‘lik chigitning dorilanishi va saqlanishini **Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida** o‘rganish.	2. Urug‘lik chigit sexlari tomonidan urug‘lik chigitning dorilanishini o‘rganish. 3. Dorilangan urug‘lik chigitning omborlarda amaldagi standart talablari asosida saqlanishini nazorat qilish. 4. O‘rganish natijasida aniqlangan qonunbuzilish holatlar yuzasidan **mas’ullarga choralar** *(taqdimnoma, ko‘rsatma, ogohnoma va ma’muriy bayonnoma)* **ko‘rish.** 5. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **Vazirlar Mahkamasiga axborot berish.**		Natijada respublikamizning paxta maydonlariga ekinboplik sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan urug‘lik chigit bilan taminlanadi.	
26.	Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-martdagi 166-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan *“Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘liklarini yetishtirish huquqiga ega bo‘lish bo‘yicha tanlovlarni “E_urug‘” axborot tizimida tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”*gi Nizomga qat’iy amal qilgan holda **urug‘lik paxta yetishtirish huquqiga ega bo‘lish jarayonini sifatli o‘tkazilishini nazorat qilish**.	1. 2026-yil hosili uchun urug‘lik paxta yetishtirish huquqiga ega bo‘lgan xo‘jaliklar ro‘yxatini hamda ma’lumotlarini tahlil qilish. 2. Ma’lumotlar tahlili natijasida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan **mas’ullarga choralar** *(taqdimnoma, ko‘rsatma, ogohnoma va ma’muriy bayonnoma)* **ko‘rish.** 3. Qonunbuzilish holatlar yuzasidan **tegishli davlat organlariga axborot berish.**	**1-mart**	Urug‘lik paxta yetishtirishda yuqori tajribaga ega xo‘jaliklar tanlab olinadi hamda ular tomonidan hosildor urug‘lik paxta navlari yetishtirilib, kelgusi yil hosili uchun sifatli urug‘lik chigit tayyorlanishiga erishiladi. Shuningdek, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi taminlanadi.	**M.Kurbanbayev,** Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari
27.	Qishloq xo‘jaligi sohalarida **qonunchilik talablariga rioya etilishi** ustidan nazoratni amalga oshirish.	1. Qishloq xo‘jaligi sohalaridagi qonun va qonunosti hujjatlariga rioya qilinishi va ijrosi yuzasidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlarini tahlil qilish va	**(har oyning 5-sanasiga)**	1. Tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida nazorat va profilaktika tadbirlarini o‘tkazish orqali qishloq xo‘jaligida hosildorlik	V.Hasanov, **I.Pirnazarov (i),** tarkibiy tarmoq

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
		aniqlangan muammolarni hal etish choralarini ko'rish. 2. O'tkazilgan nazorat tadbirlari ijrosi bo'yicha muhokama o'tkazish va aniqlangan muammolarni hal etish choralarini ko'rish. 3.Har oy yakuni bo'yicha **Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish**.	**har oy yakuni va 16 sanasida**	va rentabellik darajasini oshirishga erishiladi. 2.Qishloq xo'jaligi sohalaridagi qonun va qonunosti hujjatlariga rioya qilinishi va ijrosi yuzasidan nazorat ta'minlanadi**.**	va hududiy boshqarmalar boshliqlari
28.	O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 575-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zagroinspeksiya to'g'risida"gi Nizomida belgilangan vazifa va funksiyalarning hamda Inspeksiya rahbariyati topshiriqlarning ijrosi yuzasidan Inspeksiyaning **Andijon***, **Farg'ona**** va **Namangan***** viloyatlari hududiy boshqarmalar va tuman bo'limlarining sohaviy mutaxassislari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni o'rganish.	1.Sohaviy bo'linmalarda amalga olirilayotgan ishlarni o'rganish, ijro intizomi va nizomda belgilangan vazifalarning ijrosini masofadan tahlil qilish maqsadida savolnoma shakllantirish. 2.Yer onunbuzil holatlarida amalga ishlar va hisobotlarni tahlil qilish. 3.O'rganish natijasida kelib chiqgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan Inspeksiyaning viloyat boshqarma-lariga **ko'rsatma berish.**	**aprel*** **may**** **iyun*****	1.Qishloq xo'jaligi sohasidagi qonunchilik talablari buzilishini erta oldini olish, bajariladigan qishloq xo'jaligida belgilangan boshqa tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi hamda huquqbuzarliklarni oldini olishga erishiladi. 2.Qishloq xo'jaligi sohalaridagi qonun va qonunosti hujjatlariga rioya qilinishi va ijrosi yuzasidan nazorat ta'minlanadi**.**	**A. Maxmudov(i),** Andijon, Farg'ona va Namangan viloyat boshqarmalari
29.	2026-yil hosilidan urug'lik don yetishtiruvchi subyektlarining urug'lik g'alla maydonlarida dala aprobatsiya ko'rigini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 641-sonli qarorining	1. Urug'lik g'alla maydonlarida aprobatsiya ko'rigini o'tkazish uchun tashkil qilingan aprobatsiya ishchi guruhining tarkibini Markaziy apparatda o'rganish. 2. Ishchi guruh tomonidan urug'lik g'alla maydonlarida aprobatsiya	**30-iyun**	Urug'lik maydonlarida sifatli aprobatsiya ko'rigi o'tkazilishiga erishiladi va kelgusi yil hosili uchun navdorligi yuqori bo'lgan urug'lik don jamg'arilishiga zamin yaratilib, qonunbuzilish	**M.Kurbanbayev(i),** Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
	3-ilovasi bilan tasdiqlangan *"Urug'lik uchun ekilgan maydonlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini aprobatsiya qilish tartibi to'g'risida"gi* Nizomga qat'iy amal qilgan holda **sifatli o'tkazilishini nazorat qilish.**	ko'rigining Nizom talablari asosida o'tkazilganligini tahlil qilish. 3. O'rganish natijalariga ko'ra aniqlangan qonunbuzilish holatlariga ko'ra mas'ullarga choralar (taqdimnoma, ko'rsatma, ogohnoma va ma'muriy bayonnoma) ko'rish. 4. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **Vazirlar Mahkamasiga axborot berish.**		holatlariga yo'l qo'yganlarga nisbatan choralar ko'rilishi ta'minlanadi.	
30.	O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 575-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zagroinspeksiya to'g'risida»gi Nizomida belgilangan vazifa va funksiyalarning hamda Inspeksiya rahbariyati topshiriqlarning ijrosi yuzasidan **Samarqand va Buxoro** boshqarmalar va tuman bo'lim-larining sohaviy mutaxassislari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni **masofaviy o'rganish**.	1.Sohaviy bo'linmalarni o'rganish bo'yicha ish yuritish, ijro intizomi va nizomda belgilangan vazifalarning ijrosini masofadan tahlil qilish maqsadida savolnoma shakllantirish. 2.Tahlilning to'laqonli bo'lishi uchun talab qilinadigan hujjatlar ro'yxati oldindan taqdim qilish va so'rab olish. 3.To'plangan ma'lumotlar asosida o'rganish ma'lumotnomasini rasmiylashtirish. 4.Natijasiga ko'ra tahliliy ma'lumotnoma tayyorlanadi va ish faoliyatini yaxshilash bo'yicha **ko'rsatma tayyorlanadi va Inspeksiya rahbariyatga axborot kiritish.**	**iyun**	1.Qishloq xo'jaligi sohasidagi qonunchilik talablari buzilishini erta oldini olish, bajariladigan agrotexnik va qishloq xo'jaligida belgilangan boshqa tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi hamda huquqbuzarliklarni oldini olish orqali qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini oshirishga erishiladi. 2.Qishloq xo'jaligi sohalaridagi qonun va qonunosti hujjatlariga rioya qilinishi va ijrosi yuzasidan nazorat ta'minlanadi**.**	**A.Mirzaaxmedov(i),** boshqarma xodimlari, Samarqand va Buxoro viloyat boshqarmalari
31.	Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-maydagi 146-son qarori	1. Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-maydagi 146-son qarori talablari ijrosini ijrosi yuzasidan aniqlangan	***fevral** ****mart**	Hisoblangan zararlarni "**uzagroin**" dasturiga kiritilgan	**A. Maxmudov(i),** Qoraqalpog'iston Respublikasi va

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
	talablari ijrosini Inspeksiyaning **Qoraqalpog'iston Respublikasi*** va **Xorazm**** viloyatlarida masofaviy o'rganish.	zararlar bo'yicha sudlarga kiritilgan da'vo arizalarni tahlil qilish. 2.Tahlil natijasiga ko'ra, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan Inspeksiyaning viloyat boshqarmalariga **ko'rsatma berish.**		ma'lumotlar asosida qonunda belgilangan tartibda yuritilishi ta'minlanadi.	Xorazm viloyati boshqarmalari
32.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-maydagi 262-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-iyundagi "Ichki bozorni un va non mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi 146-sonli bayoni 8-bandiga asosan birja savdolari orqali 3 va undan yuqori sinflardagi bug'doy sotib olishi mumkin bo'lgan **un ishlab chiqarish quvvatlariga ega tadbirkorlik subyektlari ro'yxatiga qo'shimcha kiritish masalasini ko'rib chiqish**.	1. Birja savdolari orqali 3 va undan yuqori sinflardagi bug'doy sotib olishi mumkin bo'lgan un ishlab chiqarish quvvatlariga ega tadbirkorlik subektlari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish. 2.Tadbirkorlik subektlarida o'tkazilgan o'rganishlar bo'yicha xulosalar berish. 3.Natijasiga ko'ra **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi** va **Iqtisodiyot va moliya vazirligiga axborot kiritish.**	**yanvar-iyun**	Birja savdolari orqali 3 va undan yuqori sinflardagi bug'doy sotib olishi mumkin bo'lgan un ishlab chiqarish quvvatlariga ega tadbirkorlik subektlari ro'yxatiga qo'shimcha kiritiladi.	**K. Axmedov(i),** boshqarma mutaxassislari, Inspeksiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari
33.	O'zbekiston Respub-likasi Prezidentining 2018-yil 17-yanvardagi PQ-3479-son qaroriga asosan korxonalar-ning paxta texnik chigitini to'liq texnologik siklda maqsadli qayta ishlaganligi hamda	1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-sentabrdagi PQ-374-sonli qaroriga asosan nazorat tadbirlari o'tkazish. 2.Nazorat tadbirlariga "O'zyog'moy-sanoat" uyushmasi,	**har oyning 5-sanasiga**	Yuqori likvidli yoki monopol tovarlarni, ijtimoiy ahamiyatga ega asosiy mahsulotlar narx-navolari keskin o'sishiga, bozorda talab va taklif	**K. Axmedov(i),** boshqarma mutaxassislari, Inspeksiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi va

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas'ullar
	ularning mahsulot sifatini tasdiqlovchi gigiyenik xulosa va muvofiqlik sertifikatlariga ega ekanligi ustidan **nazoratni olib borish**.	O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi hamda Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati mutaxassislarini jalb etish. 3.Natijasiga ko'ra rahbariyatga axborot hamda **Tovar xom-ashyo birjasiga taqdimnoma kiritish**.		muvozanatini ta'minlashga erishiladi.	viloyatlar boshqarmalari
34.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-dekabrdagi 772-sonli qarorining 3-bandi 2-xatboshida berilgan topshiriqdan kelib chiqib, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan maqsadli foydalanish hamda o'z vaqtida sifatli ekish va parvarishlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan doimiy **nazorat va monitoring ishlarini olib borish.**	1. 2026-yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini o'z vaqtida va sifatli ekilishi va parvarishlash bo'yicha hududlarda nazorat va monitoring tadbirlarini o'tkazish. 2. O'tkazilgan nazorat va monitoring tadbirlarni (majburiy tartibda "Qishloq xo'jaligi sug'urtasi" axborot tizimiga kiritish maqsadida) bo'yicha ma'lumotlarni **Qishloq xo'jaligi vazirligiga kiritish.**	**may**	O'tkazilgan nazorat va monitoring tadbirlari natijasida qishloq xo'jaligi ekinlaridan belgilangan hosil olinishiga hamda qishloq xo'jali ekinlarini yetishtirishda turli omillar sababli yetkazilgan zararlarning bir qismini qoplab berilishiga erishiladi.	**M.Husainov (i),** Inspeksiyaning hududiy boshqarmalari
VI. KADRLARNI TANLASH, MALAKASINI OSHIRISH, QAYTA TAYYORLASH ISHLARINI TASHKIL ETISH, MATBUOT ANJUMANLARI TAShKIL QILISh					
35.	Inspeksiya boshlig'ining 2023-yil 5-maydagi 11-B-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan **"HR-management"** to'g'risidagi Nizomi talablari ijrosini Inspeksiyaning **Sirdaryo**, **Jizzax**, **Qashqadaryo**, va **Surxondaryo** viloyati boshqarmalarida o'rganish va amaliy yordam ko'rsatish.	1.Inspeksiyaning hududiy boshqarmalaridagi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish yo'nalishi bo'yicha faoliyatini joyida o'rganish. 2.O'rganish natijalari bo'yicha hududiy boshqarmalarga **ko'rsatma chiqarish**.	**yanvar-iyun**	Kadrlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlar tahliliy va tanqidiy o'rganilib, faoliyatni yaxshilash bo'yicha amaliy yordam ko'rsatiladi va kelgusida kamchiliklar takrorlani-shining oldi olinadi.	V.Hasanov, **U.O'tbosarov (i),** Inspeksiyaning Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo, va Surxondaryo viloyati boshqarmalari

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas’ullar
36.	Xodimlarni **davlat tilida** ish yuritishida savodxonligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha o‘quv kurslarini tashkil etish.	1. Xodimlarni o‘qitish bo‘yicha grafik ishlab chiqish. 2.Oliy ta’lim muassasalari, nodavlat o‘quv markazlari bilan shartnomalar tuzish. 3. Grafikka asosan jami **113 nafar** *(shu jumladan 1-chorakda 54 nafar, 2-chorakda 59 nafar)* xodimlarni o‘qitish.	**20-yanvar** **10-fevral** **fevral, iyun**	Xodimlar **davlat tilida** ish yuritishda savodxonligi oshadi.	V.Hasanov, **U.O‘tbosarov (i),** F.Mamasoliyev, hududiy boshqarmalar
37.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-sentabrdagi PQ-287-sonli qarorining 3 (b) bandi **ijrosini ta’minlash.**	1.Inspeksiyaning hududiy boshqarmalarda qishloq xo‘jaligi yerlarini muhofaza qilishni amalga oshirish soxasiga mas’ul bo‘lgan rahbar va hodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish natijalariga ko‘ra **sertifikatlar berish**. 2.Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **Vazirlar Maxkamasiga axborot kiritish.**	**yanvar** **may**	Qishloq xo‘jaligi yerlarda yer qonunbuzilish holatlarini oldini olish maqsadida “E-YER NAZORAT” tizimida yerga oid qonunbuzilish holatlari to‘g‘risidagi ishlarni yuritish, bo‘yichi bilim va malakalarini oshiriladi.	V.Hasanov, **A. Maxmudov (i),** Hududiy viloyat boshqarmalari
38.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–95-son Farmonining 20-bandi “a” kichik bandi **ijrosini ta’minlash.**	1. Davlat fuqarolik xizmatchilariga istisno tariqasida bir marta va ular egallab turgan lavozimiga muvofiq malaka darajalarini berish masalalarini ko‘rib chiqish uchun hujjatlarni inspeksiyaning Malaka komissiyasiga taqdim etish. 2. Xodimlarga malaka darajalarini berish to‘g‘risida buyruq loyihasini tayyorlash. 3.Xodimlarga malaka darajalari berilganligi to‘g‘risida O‘zbekiston	**1-mart**	Davlat xizmatchilariga, istisno tariqasida bir marta, ular egallab turgan lavozimiga muvofiq, biroq, ulardagi mavjud maxsus unvonlardan (martaba yoki malaka darajalari) past bo‘lmagan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining **malaka darajalari beriladi.**	V.Hasanov, **U.O‘tbosarov (i),** Malaka komissiyasi

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish mexanizimi	Ijro muddati	Erishiladigan natija	Ijro uchun mas’ullar
		respublikasi **Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligiga axborot kiritish.**			
39.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekardagi “O‘zbekiston Respublikaksida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-270-sonli farmoniga 1-ilova “Chora-tadbirlar rejasi” ijrosini nazorat qilish.	1.Ma’lumotlarni tahlil qilib borish. 2.Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tahliliy ma’lumotlar asosida **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga axborot kiritish.**	har oy 2026-yil 30-iyun	Amalga oshirilgan ishlar natijasida korrupsiyani olditsh olish bo‘yicha belgilangan topshiriqlar ijrosi ta’minlanadi.	V.Hasanov, **K.Bazarbayev (i),** Inspeksiyaning viloyat boshqarmalari, “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini baholash” DM
40.	O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-on Farmoniga mufofiq, Inspeksiya faoliyatiga yanada ochiqlik berish maqsadida ommaviy axborot vositalarida intervyular uyushtirish hamda Brifing, Press-tur va matbuot anjumanlari o‘tkazish.	1. Ommaviy axborot vositalari vakillari jalb qilingan holda, rahbariyat va sohaviy boshqarma boshliqlari ishtirokida press-tadbirlar tashkil etish, jamoatchilik vakillari oldida faoliyat yuzasidan hisobot beriladi va savol-javoblar o‘tkazish. 2. Natijasi bo‘yicha ommaviy axborot vositalari hamda Inspeksiya rasmiy veb-saytida muntazam yoritib borish. 3. Amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha **Ommaviy axborot vositalari uchun content tayyorlash markaziga axborot kiritish**.	**yanvar-iyun**	“O‘zagroinspeksiya” faoliyatiga yanada ochiqlik berilib, tashkilot shaffofligi erishiladi va tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan jamoatchilik vakillari yaqindan tanishadilar.	V.Hasanov, **S.Ismoilova (i),** Markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari, hududiy boshqarmalar boshliqlari, “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi” davlat muassasasi